

## TALABALARING O'QUV JARAYONIGA IJTIMOIY MOSLASHUVINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK QIRRALARI.

Rahmatova Nargiza Allayor qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya yo'naliishi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Psixologiyada moslashuvchanlik o'ziga xos tushincha hisoblanib, inson hayotining omili haqida so'z ketadi. Talabalarni o'quv jarayonlarida dars mavzularini o'rghanishda psixologiyani o'rni haqida ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy faoliik, axloqiy jihatlar, yetuklik, jamiyat, psixologiya, aqliy, estetik.

**Аннотация:** В психологии адаптивность считается уникальным понятием и является фактором жизнедеятельности человека. Обсуждены сведения о роли психологии в изучении тем уроков в воспитательных процессах учащихся.

**Ключевые слова:** Социальная активность, нравственные аспекты, зрелость, общество, психология, психика, эстетика.

**Abstract:** In psychology, adaptability is considered a unique concept and it is a factor of human life. Information about the role of psychology in the study of lesson topics in the educational processes of students was discussed.

**Key words:** Social activity, moral aspects, maturity, society, psychology, mental, aesthetic.

Pedagogik psixologiya fanidan ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilari har (biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik) jihatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sistemalashtirish kabi qobiliyatlarda ko'rindigan fazilatlar namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallashga bogliq yangi vazifalar paydo bo'ladi. Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va hokazolar o'rgatiladi. Bu vazifalami amalga oshirishning asosiy omili — monologik ma'ruzadan dialogik (talaba va o'qituvchining muloqotiga asoslangan) ma'ruzaga o'tishdir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsada, lekin xulqining eng muhim sifatlari — mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi. Psixologlaming tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. Shaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo'llini

belgilash shular jumlasidandir. Talaba asta-sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zining va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatning yangicha ko'rin ish in i o'matadi, turmushdagi ijtimoiy rollami amalda shaxsan sinab ko'rishga intiladi. Ulardagi rolning his-tuyg'ular voqelikka muayyan yondashishga birmuncha xalaqit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan iborat e anligi to'g'risida aniq tasawurga ega bo'lmaydilar.

Yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o'rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Biz tadqiqot ob'ekti sifatida oliy ta'limning talabalarni (jami respondent 482 nafar) ajratib olgan edik. Bularning 241 nafari Buxoro davlat universitetining «Pedagogika» fakulteti talabalari va 241 nafari Buxoro davlat universiteti «Tabiiy fanlar» fakulteti talabalari hisoblanadi. Tadqiqot ishi oldida turgan vazifalarni hal etish maqsadida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan: talabalar kasbiy shakllanishi jarayonida aqliy qobiliyatları va umumiyl intellektual imkoniyatlarini o'rganish maqsadida suhbatlar uyushtirilgan; talabalarning ta'lim jarayonidagi intellektual salohiyati kuzatilgan; talabalarning aqliy qobiliyatini aniqlashda Dj.Ravenning «Progressiv matriksalari» testi qo'llanilgan; talabalarning V faktor bilan bog'liq so'zlar bilan ishlash imkoniyati «Maqollarni ta'birlash» testi, N sonlar bilan ishlay olish faktori «Sonlar qatori» va «Sonlarning mantiqiy qatori», «matematik intellekt» testlari, amaliy va motor faoliyat bilan bog'liq «amaliy intellekt» va fazoviy idrok bilan bog'liq «vizual intellekt» testlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. J.Gilford va M.Sallivenaning «Umumiyl intellektning diagnostikasi» metodikasidan foydalanilgan. V.V.Boykoning «Empatik qobiliyatlar darajasi diagnostikasi» metodikasi qo'llanilgan. J.Gilford divergent va konvergent tafakkur turlari negizida ijodiy tafakkur yotishini asoslab bergen. Talabalarning umumiyl intellektini tahlil etishda topshiriqlarning tuzilish tamoyillarining xarakterli holatlari inobatga olingan. Dj.Raven metodikasi bo'yicha talabalarning umumiyl intellekt koeffitsenti  $IQ = 92,75 \pm 11,73$  bo'lgan edi. Bu esa intellektning o'rtacha va o'rtachadan yuqori natijalari orasidagi qiymatlarning aks ettirganligi bilan xarakterlanadi. Pedagogika ( $IQ = 95,75 \pm 11,38$ ) va ijtimoiy gumanitar ( $IQ = 90,16 \pm 11,61$ ) yo'naliish talabalarining natijalarini o'zaro taqqoslaganda ham ularning qiymatlari orasidagi ko'rsatkichlar bir-biridan keskin farq qilmagan bo'lsa-da, ammo ularning ko'rsatkichlari orasida farq kuzatildi. Natijalardan ko'rindiki, ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari bilan boshqa intellekt ko'rsatkichlari orasidagi munosabatlar ancha ijobiy o'sishda ekan. Bundan ko'rindiki, talabalarning umumiyl intellektiga nisbatan ijtimoiy intellektidagi o'sish alomatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning mezonlari orasida ham nisbiy bo'lsa-da, o'zaro bog'lanishlar mavjud. Ijtimoiy

intellektning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdir. O‘zaro munosabatlarning darajasi va xarakterini tushungan holda keljakda bir-biriga ijobjiy ta’sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir. Ijtimoiy intellektning favqulotda yuz beradigan inqirozlar, uzoq cho‘ziladigan stresslar, o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni tushunib yetishi holatlarida yordam beruvchi mobilizatsion funktsiyasi juda muhim hisoblanadi. Umumiy intellektning tarkibidan farqli ravishda, ijtimoiy intellektning tarkibida o‘zo‘zini anglashning shaxsga oid xususiyatlari va xarakteristikalari katta rol o‘ynaydi. Bunda o‘z-o‘zini anglash «mashaqqatli», komplekslar va psixologik himoya to‘sirlari bilan to‘lib-toshgan bo‘lmasligi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ganjiyev F.F.. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.
2. Ганжиев Ф.Ф. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.
3. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психология химоя механизmlарининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
4. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
5. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.